

“Hayotimni varaqlab...”

O‘zR FA San‘atshunoslik instituti tomonidan atoqli o‘zbek aktrisasi Sora Eshonto‘raevaning hayoti va ijodi haqida hikoya qiluvchi “Hayotimni varaqlab...” nomli kitobi nashr etildi.



Kitob o‘ziga xos memuarlardan tashkil topgan bo‘lib, unda aktrisaning dunyoga kelishidan boshlab bolalik yillari, studiyadagi tahsil jarayoni, professional teatrdagi faoliyati, milliy va jahon dramaturgiyasidagi ijrolari, hamkasblari, atoqli o‘zbek va xorij san‘atkorlari bilan muloqoti, jamoat ishlaridagi faoliyati, chet mamlakatlarga gastrol safarlari bilan bog‘liq taassurotlari tadrijiy tarzda, muayyan xronologiya asosida yoritiladi. Ayniqsa, ushbu voqealarning aktrisa tilidan hikoya qilinishi xotiralarning tabiiy va haqqoniy, ishonarli chiqishini ta‘minlaydi. O‘quvchi mutolaa davomida san‘atkor ijodining yangi qirralaridan voqif bo‘ladi, shuningdek, uning ijodi misolida milliy teatrimizning tarixi, shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq qimmatli ma‘lumotlarga ega bo‘ladi.

Kitobga san‘atshunoslik fanlari doktori Ildar Muxtarov mas‘ul muharrirlik qilgan. Uni O‘zR FA San‘atshunoslik instituti doktorantlari Shohrux Abdurasulov va Charos Hamidovalar nashrga tayyorladi.

“Hayotimni varaqlab...” deb nomlangan mazkur memuar kitob teatrshunoslar, sahna pedagoglari, tadqiqotchilar, talabalar va o‘zbek teatr san‘atiga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan. Kitob milliy teatrimiz tarixini o‘rganishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.